



ARAB TILI QOIDALARINING KLASSIK MATNLAR TARJIMASIDAGI AHAMIYATI

Fazliddinov Abdulmuhsin Mo'min o'g'li

Yangi Asr Universiteti

Lingvistika (arab tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20195825>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-may 2026 yil

Ma'qullandi: 12-may 2026 yil

Nashr qilindi: 14-may 2026 yil

KEYWORDS

Arab tili, klassik matn, tarjima, nahv, sarf, balog'at, semantika, lingvistik tahlil, diniy matnlar, tarjima metodologiyasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada arab tili qoidalarining klassik matnlar tarjimasidagi o'rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xususan, nahv (sintaksis), sarf (morfologiya) hamda balog'at ilmlarining tarjima jarayonidagi roli ochib beriladi. Klassik arab matnlarining mazmunan chuqur, ko'p qatlamli va nozik uslubiy xususiyatlarga ega ekanligi sababli, ularni to'g'ri va mukammal tarjima qilishda til qoidalarini chuqur bilish zarurligi asoslanadi. Shuningdek, maqolada noto'g'ri tarjimalarga olib keluvchi asosiy omillar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rsatib o'tiladi.

Klassik arab matnlari til, uslub va ilmiy an'ana jihatidan murakkab tuzilishga ega. Ayniqsa, qo'lyozma shaklida bizgacha yetib kelgan asarlarda ixtisor (qisqartirish), ramziy belgilar va shartli ishoralar keng qo'llanilgan. Bu holat bir tomondan matnni ixchamlashtirish va kitobat jarayonini yengillashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uni to'g'ri o'qish va tarjima qilishda jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Shu bois klassik manbalarni tarjima qilishda qisqartmalarni ilmiy asosda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassik matnlarda ixtisor an'anasining shakllanishi. Arab qo'lyozma madaniyatida ixtisor usuli erta davrlardan shakllangan. Qog'oz tanqisligi, kitobatning mashaqqatliliigi va ko'p nusxa ko'chirish zarurati ulamolarni matnda qisqartmalardan foydalanishga undagan. Ayniqsa, hadis, fiqh va sarf-nahv asarlarida bir xil iboralar ko'p takrorlangani sababli ular maxsus ramzlar bilan ifoda etilgan.

Manbashunoslik va matnshunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, qo'lyozmalarda qo'llanilgan ramzlarni bilmaslik matnni noto'g'ri o'qishga sabab bo'ladi. Ayrim hollarda bitta harf butun ibora o'rnida kelgan. Masalan, "ق" harfi "قال" ma'nosida, "تنا" esa "حدثنا" ma'nosida ishlatilgan. Bu kabi ixtisorlar hadis zanjirida ayniqsa ko'p uchraydi.

Demak, qisqartmalarni anglash faqat lug'aviy bilim emas, balki manbashunoslik tayyorgarligini ham talab qiladi.

Natijalar va muhokama. Klassik matnlarda uchraydigan qisqartmalarni mazmun va vazifasiga ko'ra bir nechta guruhga ajratish mumkin:

1. Diniy-ehtiromiy qisqartmalar
2. Rivoyat zanjiriga oid qisqartmalar
3. Sarf-nahviy formulalar

4. Sana va tarixiy belgilar
5. Muallifiy va hoshiya ramzlari

1. Diniy matnlarda Payg'ambar (s.a.v.), sahobalar va ulamolar ismidan keyin duo va ehtirom iboralari keladi. Qo'lyozmalarda bu iboralar qisqartirilgan holda yozilgan:

ص: "صلى الله عليه وسلم"

رض: "رضي الله عنه"

رح: "رحمه الله"

Bu qisqartmalarni tarjimada umuman tushirib qoldirish matnning diniy uslubini zaiflashtiradi. Chunki ular faqat odob belgisi emas, balki matnning konfessional xususiyatini ham ifoda etadi. Shuning uchun tarjimada bunday qisqartmalar yo to'liq shaklda berilishi, yo izoh orqali tushuntirilishi lozim.

2. *Rivoyat zanjiriga oid qisqartmalar.* Hadis va tarixiy manbalarda roviylar zanjiri (isnod) ixtisor qilingan holda keladi. Masalan:

ثنا — حدثنا

أنا — أخبرنا

عن — roviy orqali

Bunday qisqartmalar tarjimada ochib berilmasa, rivoyat strukturasi buziladi. Ayniqsa, hadis ilmida "حدثنا" va "أخبرنا" o'rtasidagi farq ilmiy ahamiyatga ega. Shu bois ularni bir xil tarjima qilish maqsadga muvofiq emas.

Matnshunoslikka oid tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, roviy ramzlarini to'g'ri ochish ilmiy ishonchlilikni ta'minlaydi.

3. *Sarf-nahviy formulalar.* Sarf ilmiga oid asarlarda fe'l vaznlari maxsus formula orqali beriladi:

فعل — يفعل — فعلاً

Bu yerda har bir shakl muayyan grammatik ma'noni ifoda etadi. Agar tarjimon formulani oddiy "fe'l shakllari" deb umumlashtirib yuborsa, sarfiy tahlil mazmuni yo'qoladi.

Sarf ilmining asosiy manbalaridan biri bo'lgan asarda fe'l vaznlarining ma'no farqlari alohida ta'kidlangan. Demak, qisqartma formulalarni izohsiz qoldirish ilmiy mazmuni kamaytiradi.

4. *Sana belgilar.* Qo'lyozmalarda "هـ" belgisi hijriy yilni anglatadi. Ayrim hollarda sana faqat raqam va shu belgi orqali berilgan. Bunday holatda tarjimon uni milodiy yilga aylantirish yoki qavs ichida izoh berish orqali tushuntirishi maqsadga muvofiq.

5. *Muallifiy ramzlar.* Ayrim qo'lyozmalarda muallif yoki nusxakor hoshiyada maxsus belgilar qo'ygan. Ular matnga qo'shimcha, tuzatish yoki eslatma vazifasini bajargan. Bu ramzlarni tushunmaslik matnni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin.

Qisqartmalarning tarjimaga semantik ta'siri. Qisqartmalarni ochish jarayoni faqat texnik ish emas. U semantik tahlilni ham talab qiladi. Chunki ayrim hollarda ixtisor qilingan so'z ma'no yukini belgilaydi.

Masalan, "فيل" (aytildi) iborasi fiqhiy matnda muallif fikri emas, balki boshqa ulamolar qarashini ifoda etadi. Agar tarjimada bu farq ko'rsatilmasa, muallif pozitsiyasi noto'g'ri tushunilishi mumkin.

Xuddi shunday, "والله أعلم" iborasi ilmiy tavozeni anglatadi. Uni tushirib qoldirish matn uslubiga ta'sir qiladi.

Qisqartmalar va uslub masalasi. Klassik matnlar uslubi ixtisor va ixchamlikka asoslangan. Qisqartmalar matnni zich va konsentrlashgan shaklda beradi. Tarjimada esa ba'zan izoh berish zarurati tug'iladi. Shu nuqtayi nazardan tarjimon ikki tamoyil o'rtasida muvozanat saqlashi kerak:

- Ilmiy aniqlik
- Uslubiy ixchamlik

Agar har bir qisqartma keng sharh bilan berilsa, tarjima sun'iy cho'zilib ketadi. Agar umuman izoh berilmasa, ma'no yo'qoladi. Shu bois optimal usul — birinchi marta uchraganda to'liq ochish, keyin esa qisqartma shaklini saqlash hisoblanadi.

Qisqartmalarni noto'g'ri talqin qilish oqibatlarini. Matnshunoslikka oid tadqiqotlarda qayd etilishicha, qo'lyozma ramzlarini noto'g'ri o'qish tarixiy xatolarga sabab bo'lgan holatlar mavjud. Ayrim asarlarda roviy ismi qisqartirilgani sababli u boshqa shaxs bilan adashtirilgan.

Sarfий formulalarni noto'g'ri tushunish esa grammatik qoidani buzadi. Masalan, bir bob fe'lini boshqa bob sifatida talqin qilish ma'noni butunlay o'zgartiradi.

Demak, qisqartmalarni tahlil qilish matnning tarixiy ishonchliligini, grammatik to'g'riligini, uslubiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, klassik arab matnlarida qo'llanilgan qisqartmalar (ixtisorlar) nafaqat texnik yozuv vositasi, balki matnning semantik, uslubiy va ilmiy qatlamlarini belgilovchi muhim element hisoblanadi. Ularni mazmun va funksiyasiga ko'ra diniy-ehtiromiy, rivoyat zanjiriga oid, sarf-nahviy formulalar, tarixiy belgilar hamda muallifiy ramzlar kabi guruhlarga ajratish tarjima jarayonini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, diniy-ehtiromiy qisqartmalarni tarjimada tushirib qoldirish matnning konfessional xususiyatini susaytiradi, rivoyat zanjiriga oid ixtisorlarni noto'g'ri talqin qilish esa hadis va tarixiy manbalarning ilmiy ishonchliligiga putur yetkazadi. Ayniqsa, "حدثنا" va "أخبرنا" kabi terminlar o'rtasidagi farqni e'tiborsiz qoldirish isnod tizimining mohiyatini buzadi.

Sarf-nahviy formulalarning to'g'ri talqini grammatik mazmunni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlanib, ularni umumlashtirib tarjima qilish ilmiy tahlilning yo'qolishiga olib kelishi ta'kidlandi. Shuningdek, sana va tarixiy belgilarni to'g'ri interpretatsiya qilish matnning tarixiy kontekstini aniqlashtirishda muhim omil ekanligi asoslandi.

Tadqiqot davomida qisqartmalarni tarjima qilish jarayoni faqat lingvistik emas, balki semantik va kontekstual tahlilni ham talab etishi aniqlandi. Jumladan, "قيل" yoki "والله أعلم" kabi birliklar muallif pozitsiyasi va ilmiy uslubni ifodalovchi muhim indikatorlar sifatida baholandi.

Natijada, tarjimada ilmiy aniqlik va uslubiy ixchamlik o'rtasida muvozanatni saqlash zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Optimal yondashuv sifatida qisqartmalarni birinchi qo'llanishda to'liq ochish, keyingi o'rinlarda esa ularning qisqa shaklini saqlash eng maqbul usul sifatida e'tirof etildi.

Umuman olganda, qisqartmalarni to'g'ri tahlil qilish va tarjima qilish klassik matnlarning mazmuniy to'liqligi, tarixiy ishonchliligi va uslubiy yaxlitligini ta'minlashda muhim ilmiy mezonlardan biri ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alfiya Ibn Malik. — Qohira: Dār al-Ma'ārif, 2000.
2. Sharh Ibn Aqil ala Alfiyat Ibn Malik. — Bayrut: Dār al-Fikr, 1998.
3. Muqaddimah fi Usul al-Tafsir. — Bayrut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1993.

4. Tadrib al-Rawi fi Sharh Taqrib al-Nawawi. — Bayrut: Dār al-Fikr, 1996.
5. Muqaddimah Ibn al-Salah. — Bayrut: Dār al-Ma'rifa, 1986.
6. Al-Burhan fi Ulum al-Quran. — Bayrut: Dār al-Ma'rifa, 1990.
7. Al-Itqan fi Ulum al-Quran. — Bayrut: Dār al-Fikr, 2003.
8. Manahij al-Mufassirin. — Qohira: Dār al-Shurūq, 2005.
9. Arabic-English Lexicon. — Cambridge: Islamic Texts Society, 1984 (qayta nashr).
10. Introduction to Arabic Linguistics. — München: Lincom Europa, 2001.
11. The Arabic Language. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014.
12. A Grammar of the Arabic Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1896 (qayta nashr: 1967).
13. Ulum al-Hadith. — Dimashq: Dār al-Fikr, 1997.
14. Dirasat fi al-Nahw al-Arabi. — Qohira: Maktabat al-Khanji, 2004.

